

Vladimir Tyurdenev: O'zbekistonda har qanday mehmon o'zini xuddi uyidagidek his qiladi



O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik bayrami arafasida O'zA muxbiri Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Vladimir Tyurdenev bilan ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning joriy holati, istiqboli, hamkorlikning o'ziga xos jihatlari xususida suhbatlashdi:

- Vladimir Lvovich, suhbatimiz avvalida O'zbekiston - Rossiya munosabatlarining so'nggi uch yildagi rivojlanish jarayoni va bugungi kundagi holati haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

- So'nggi uch yildagi Rossiya - O'zbekiston hamkorligi xususiyati ittifoqchilik va strategik sheriklik munosabatlarini yana-da boyitish bo'yicha jadal ishlar amalga oshirilgani bilan ajralib turadi. Eng muhimi, sa'y-harakatlar o'z natijalarini bermoqda. Bugungi kunda Rossiya va O'zbekiston vaqt sinovidan o'tgan ishonchli do'st va sherik hisoblanadi.

Bu davrda prezidentlar Vladimir Putin va Shavkat Mirziyoyevning davlat tashriflari amalga oshirildi, ilk marotaba mintaqaviy va ta'limga oid forumlar o'tkazildi, parlamentlararo hamkorlik darajasi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, madaniy-gumanitar sohadan tortib, harbiy-texnik hamkorlikkacha, ko'plab sohalar delegatsiyalari almashinuvi kengaydi, hamkorlikning yadro energetikasi kabi mutlaqo yangi yo'nalishi paydo bo'ldi. Yangi format - Rossiya va O'zbekiston hukumatlari rahbarlari darajasidagi Qo'shma komissiya ta'sis etildi. Ushbu tuzilma ikki tomonlama kelishuvlar va turli yo'nalishdagi hamkorlik dasturlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Hozirgi holat haqida gapiradigan bo'lsak, ayni payt Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga davlat tashrifiga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Ushbu tashrif koronavirus pandemiyasi tufayli qoldirilgan edi. Ishonchimiz komilki, mazkur sammit bizni yana-da yaqinlashtiradi.

- Rossiya O'zbekiston bilan hamkorlikka faqat Markaziy Osiyo nuqtayi nazaridan qaraydimi yoki ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik tushunchasi kengroqmi? Agar shunday bo'lsa, ayni qamrov nimalarda ko'rinadi?

- Shubhasiz, Markaziy Osiyo sharoitida O'zbekiston bilan hamkorlik qilish juda muhim. Bu Rossiya va mintaqaning olti mamlakat tashqi ishlari vazirliklari rahbarlari ko'rinishidagi aloqalari davomi bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi strategik sheriklik, ittifoqchilik munosabatlari ancha keng. Biz Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida hamkorlik qilib kelmoqdamiz, joriy yil O'zbekiston ilk bor tashkilot ishiga raislik qilmoqda. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida yaqin aloqalarimiz mavjud, hozirgi kunda Rossiya bu tuzilmaga raislik qilyapti. Qolaversa, O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kuzatuvchi sifatida qo'shilishini kutyapmiz. Davlatlarimiz BMT, YEXHT singari universal tashkilotlar kun tartibidagi muhim masalalar bo'yicha o'z pozitsiyalarini muvofiqlashtirib kelmoqda. Xalqaro tuzilmalarda paydo bo'ladigan vakant lavozimlarga nomzod ko'rsatishda bir-birimizni qo'llab-quvvatlaymiz.

- Mintaqalararo to'g'ridan-to'g'ri munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha ko'zlangan natijalarga qay darajada erishilyapti, deb o'ylaysiz? Zero, bu borada har ikki davlatning mavjud salohiyati va imkoniyati, deyarli, cheksiz, shunday emasmi?

- Ha, bu borada mutlaqo haqsiz, Rossiya va O'zbekiston mintaqalari o'rtasidagi hamkorlik ulkan salohiyatga ega. Zero, qo'shma loyihalar hayotga tatbiq etilishi natijasida kelajakda yangi ishlab chiqarish korxonalarini paydo bo'ladi, ish o'rinlari yaratiladi. Bunday sa'y-harakatlar, ayniqsa, pandemiya oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitida muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, mamlakatlarimiz

hududlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqotlarning yuqori darajasini raqamlar ham tasdiqlaydi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasining 70 dan ziyod subyekti O'zbekiston viloyatlari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Joriy yilning birinchi yarmi yakuniga ko'ra, Moskva viloyati Rossiya hududiy eksportchilari reytingida yetakchilikni qo'lga kiritdi. Moskva va Sankt-Peterburg shaharlari, Chelyabinsk, Volgograd, Samara, Sverdlovsk, Belgorod, Nijegorod va Orenburg viloyatlari ham kuchli o'nlikka kirdi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ikki tomonlama tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,8 foizga, boshqacha aytganda 2,4 milliard dollardan 2,7 milliard dollarga, Rossiyaning O'zbekistonga eksporti esa 24,5 foizga, ya'ni 1,7 milliard dollardan 2,1 milliard dollargacha o'sishi Rossiya viloyatlari bilan amalga oshirilgan ishlarning yorqin natijasidir. O'zbekiston tashqi savdosida Rossiya ulushi oshgani ham yana bir muhim ko'rsatkich. Joriy yil birinchi yarmini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda bu ko'rsatkich 1,3 foiz yoki 15 foizdan 16,3 foizgacha oshganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Rossiya O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni bo'yicha yetakchilik qiladi. Joriy yil 1-avgust holatiga ko'ra, shunday tuzilmalar soni qariyb 2000 tani, ya'ni mamlakatda faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalar umumiy miqdorining 17,8 foizini tashkil etdi. Ayni dam 800 dan ziyod korxonalar 100 foiz Rossiya kapitali asosida faoliyat yuritmoqda.

Rossiya va O'zbekiston mintaqalararo hamkorligi bo'yicha ikkinchi forum davlatlarimiz o'rtasidagi munosabat yana-da yaxshilanishiga xizmat qiladi. Mazkur tadbir Prezident Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga davlat tashrifi bilan bir vaqtda o'tkazilishi rejalashtirilgan.

- Haqiqatga tik boqadigan bo'lsak, koronavirus pandemiyasi O'zbekiston - Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarini, sanoat, turizm, xizmatlar va boshqa ko'plab sohalardagi hamkorlik sur'atini sezilarli darajada tushirib yuborganini tan olishimiz kerak. Mana shu bo'shliqni to'ldirish, ko'rsatkichlarni avvalgi darajaga ko'tarib olish uchun qanday choralar ko'rilmoqda?

- Tan olish kerak, koronavirus butun insoniyat uchun jiddiy sinov bo'ldi. Pandemiya jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, sohaning rivojlanish sur'ati keskin tushib ketishiga olib keldi. Bu qisman mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikda ham aks etdi: delegatsiya almashinuvlari deyarli to'xtadi, ko'plab ikki tomonlama tadbirlar qoldirildi, ayrim qo'shma loyihalar joyida deysinib qoldi. Tabiiyki, mamlakatlarimiz infeksiyaga qarshi samarali kurashib kelmoqda. Biz masofaviy kommunikatsiya imkoniyatlaridan faol foydalana boshladik. Video anjumanlar tashkil etish muntazamlik kasb etdi. Bu nafaqat davlat idoralari va tashkilotlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish, balki erishilgan kelishuvlar ijrosini monitoring qilish, belgilangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rishni davom ettirish, yuzaga kelgan muammoli masalalar, jumladan, fuqarolarimizning ikki davlat hududiga tashrif buyurishi va ularning o'z vatanlariga qaytishi bilan bog'liq masalalarni tezkor hal etish imkonini berdi.

Bundan tashqari, COVID-19 ga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik doirasida mamlakatlarimiz tibbiyot mutaxassislari o'rtasida onlayn-maslahatlar o'tkazilmoqda. Xabaringiz bor, ayni payt, respublika klinikalarida jumladan, "qizil" zonalarda rossiyalik shifokorlar faoliyat yuritmoqda, "Rosпотребнадзор" mutaxassislari o'zbekistonlik hamkasblariga epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etishda o'z maslahatlarini bermoqda.

Yuzaga kelgan sharoitda hamkorlikning gumanitar sohasi muhim ahamiyat kasb etdi. Shu o'rinda ta'lim sohasida Rossiyaning yetakchi oliy o'quv yurtlaridagi rus o'qituvchilarni O'zbekistonga yuborish bo'yicha 10 yilga mo'ljallangan loyihani alohida ko'rsatib o'tmoqchiman. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi respublika maktablarida rus tili va adabiyoti, umumta'lim fanlarining rus tilida o'qitilishi sifatini yana-da oshirishdan iborat. Sentyabr oyida Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universitetidan dastlabki guruh mutaxassislari O'zbekistonga tashrif buyurishi kutilmoqda.

- Vladimir Lvovich, keling, suhbatimizni yuqori notada yakunlasak. Sizning O'zbekiston va Rossiya munosabatlarini rivojlantirishga qo'shgan beqiyos hissangiz hukumatimiz va xalqimiz tomonidan doim munosib e'tirof etib kelingan. Xususan, o'tgan yil mamlakatimiz Mustaqilligi

bayrami arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan Siz yuksak Davlat mukofoti - “Do‘stlik” ordeniga sazovor bo‘ldingiz. Umuman, O‘zbekistonda ishlash Sizga diplomat sifatida qay darajada qulay va yoki bizning serquyosh diyorumizni oddiy inson sifatida qanday qabul qilasiz?

- Eng avvalo, mening bu yerdagi faoliyatimga nisbatan berilgan mana shunday yuksak baho uchun respublika rahbariyatiga o‘z minnatdorligimni bildirmoqchiman. O‘zbekistonda faoliyat yuritish o‘z xizmat pillapoyamda ilk marotaba Markaziy Osiyoda ishlash -mintaqaning ko‘p asrlik madaniyati bilan tanishish, hamkasblarimdan sharq diplomatiyasi san‘atini o‘rganish imkonini berdi. Biz uzoq vaqt davomida yonmayon yashaganimiz diplomatlar, elchixonada mehnat qilayotgan xodimlarning bu zaminga moslashish jarayonini ancha soddalashtiradi.

Ishonchim komilki, o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi va samimiyati tufayli har qanday inson bu yurtda o‘zini xuddi uyidagidek his qiladi. O‘zbekistonda millatlararo muloqot, maishiy hayot, televideniye, radio, bosma OAV, ta‘lim tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan rus tili aloqa vositasi sifatida muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

- O‘zbekiston xalqiga bayram tilaklaringiz...

- Qardosh O‘zbekistonning bayramlari - hamyurtlarimiz, bu yerda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va tadbirkorlar, diplomatlar - bir so‘z bilan aytganda, asrlar davomida xalqlarimizni bog‘lab kelgan hamkorlik rivojiga, do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga o‘z ulushini qo‘shgan barcha fuqarolar hayotining muhim va ajralmas qismidir.

Men o‘zbekistonliklarni asosiy davlat bayrami - O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni bilan chin yurakdan tabriklayman! Barchaga mustahkam sog‘liq, ezgulik va farovonlik tilayman. Ilohim har bir oilada tinchlik, hamjihatlik hukm sursin!

Manba